



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti





№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH TADBIRLARINI MAKTAB DARAJASIDA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVI



UDK: 373.091.3:371.13

Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti
tayanch doktranti

Annotatsiya: O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat va jahon tajribasida o'qituvchilar bilimini muntazam yangilash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchi shaxsini keng qamrovli, zamon bilan hamqadam va ilg'or fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida samarali boshqarish muhim hisoblanadi. Rivojlanayotgan jamiyat sharoitida zamonaviy ta'lim me'yorlari, texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ilmiy-tadqiqot natijalari har bir o'qituvchidan yangicha yondashuv, izlanish va uzluksiz kasbiy o'sishga intilishni talab etadi.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, o'qituvchilar, maktab boshqaruvi, ta'lim sifati, integratsiyalashgan yondashuv, pedagogik kompetensiya, monitoring, innovatsion boshqaruv, hamkorlik, zamonaviy ta'lim.

Abstract: Continuous professional development of teachers plays a significant role in the modern education system. Both national and international practices emphasize strategies aimed at regularly updating teachers' knowledge, developing their professional competencies, and improving the quality of education. The formation of a teacher as a well-rounded, forward-thinking, and modern specialist requires effective management of continuous professional development activities at the school level. In the context of a rapidly developing society, modern educational standards, technological advancement, and research outcomes demand innovative approaches, continuous learning, and professional growth from every teacher.

Key words: continuous professional development, teachers, school management, quality of education, integrated approach, pedagogical competence, monitoring, innovative management, collaboration, modern education.

Аннотация: Непрерывное профессиональное развитие учителей является важным фактором современной системы образования. В отечественной и мировой практике особое внимание уделяется стратегиям обновления знаний учителей, развитию их профессиональных компетенций и повышению качества образования. Формирование личности учителя как всестороннего, современного и перспективно мыслящего специалиста требует эффективного управления процессами непрерывного профессионального развития на уровне школы. В условиях развивающегося общества современные образовательные стандарты, стремительное развитие технологий и результаты научных исследований предъявляют к каждому учителю требования к новому подходу, исследовательской активности и постоянному профессиональному росту.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, учителя, управление школой, качество образования, интегрированный подход, педагогическая компетентность, мониторинг, инновационное управление, сотрудничество, современное образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi doimiylik va uzluksizlik tamoyillari asosida tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti, ilmiy-texnikaviy yangiliklar va ta'lim sohasidagi tub islohotlar o'qituvchilardan yangicha fikrlashni, o'z ustida doimiy ishlashni va o'zgarishlarga tez hamda samarali moslashishni talab qilmoqda. Ayniqsa, maktabda zamonaviy ta'lim dasturlari, innovatsion yondashuvlar va ilg'or metodikalarni joriy etish uchun o'qituvchining har tomonlama malakali bo'lishi zarur.

Kasbiy rivojlanishning uzluksizligi, avvalo, o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilashga intilishida namoyon bo'ladi. Bunday jarayon doimiy izlanish, o'zaro tajriba almashish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi amaliyot va metodikani egallashga asoslanadi.

Maktab darajasida bu jarayonlar o'z-o'zidan tartiblangan holda emas, balki maqsadli, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarilishi juda muhimdir. Zero, kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan har qanday tadbir, loyiha yoki seminar faqatgina puxta boshqaruv va saviyali tashkil etilgandagina unumli natija beradi. Ta'limdagi islohotlar jarayonida zamonaviy maktabning muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchi salohiyatidan, uning o'z ustida ishlash layoqatidan va zamon talablariga javob bera oladigan kompetensiyalaridan kelib chiqadi.

Shu sababli, maktab darajasida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini puxta boshqarish – ilg'or tajribalar, yangiliklar, hamkorlik va resurslarni to'g'ri ijro etish orqali imkoniyatlarni oshirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi esa bu jarayonlarni yagona tizimda, har tomonlama hamkorlik, axborot almashinuvi, ilg'or fikr va tajribalarning uyg'unligida yuritishga xizmat qiladi.

Kasbiy rivojlanishning samarali tashkil etilishi maktabning ilmiy-pedagogik muhitini boyitadi, pedagoglar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Uzoq muddatli taraqqiyot va innovatsion yangilanishlar aynan o'qituvchilarning izchil va sifatli kasbiy o'sishi asosida ta'minlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, maktabda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarish ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik me'yor va tendensiyalarga mos keladigan kuchli jamoani shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maktab rahbariyati, tajribali pedagoglar, yosh o'qituvchilar hamda fan birlashmalari o'rtasida mustahkam bog'lanish, ilmiy-uslubiy birligida ishlash va bir-birini qo'llab-quvvatlash kasbiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi, zamonaviy texnologiyalar va metodlarni birgalikda o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlar beradi. Bunday muhitda har bir o'qituvchi o'z ehtiyojlariga mos individual yoki guruhli dasturlarda qatnashadi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib, o'z faoliyati samaradorligini oshirishga erishadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishning integratsiyalashgan boshqaruvi nafaqat zamonaviy ta'lim talablariga javob beradi, balki maktab jamoasi uchun ham, o'qituvchi shaxsi uchun ham keng taraqqiyot imkoniyatlarini yaratadi. Shu tariqa, kasbiy rivojlanish bugungi jamiyatda o'qituvchi salohiyati va ta'lim sifatining asosiy omili sifatida e'tirof etilib, u maktab boshqaruvida doimiy e'tibor va uzluksizlikni talab qiluvchi muhim yo'nalishga aylanoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi masalasi zamonaviy pedagogika ilmida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Guskey va Yoon 2009-yilda olib borgan tadqiqotlarida kasbiy rivojlanish dasturlarining samaradorligi bevosita o'qituvchining amaliy faoliyatiga bog'liqligini asoslab bergan. Ularning fikricha, faqat uzoq muddatli va tizimli tashkil etilgan kasbiy rivojlanishgina ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Yoon va hamkorlari 2007-yilda o'tkazgan tahlillar kasbiy rivojlanish o'quvchilar natijalariga ham ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Hargreaves va Fullan 2012-yilda ilgari surgan "professional kapital" konsepsiyasi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini individual emas, balki jamoaviy jarayon sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, maktab ichidagi hamkorlik, o'zaro tajriba almashinuvi va kasbdoshlararo o'rganish muhitini yaratish o'qituvchining professional o'sishida muhim omil hisoblanadi. Bu yondashuv integratsiyalashgan boshqaruv modelining nazariy asoslaridan biri sifatida qaraladi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham mazkur yo'nalishga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Jo'rayev va boshqalar 2023-yilda o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ochib berib, tizimli boshqaruv va innovatsion metodlarning uyg'unligini ta'kidlaydi. Norqulov 2022-yilda oliy ta'lim tizimida kreativlik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish mumkinligini asoslab beradi. Saidazimova 2021-yilda esa pedagogik kreativlikni rivojlantirish uzluksiz kasbiy o'sishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Nazarova 2022-yilda integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilib, resurslarni uyg'unlashtirish va o'qituvchilar faoliyatini kompleks boshqarish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Kharatova 2022-yilda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini qayd etadi. Bu qarashlar integratsiyalashgan yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Xorijiy va rus olimlarining ishlari ham mazkur muammoning turli jihatlarini yoritadi. Xutorskoy 2003-yilda kreativ ta'lim nazariyasini ishlab chiqib, o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Yakovleva va Avanesov 2019-yilda innovatsion o'qitish metodlarining pedagogik jarayondagi rolini



asoslab beradi. Ismailov 2024-yilda ma'rifatparvarlarning pedagogik qarashlarini tahlil qilib, uzluksiz ta'lim va kasbiy rivojlanish g'oyalarning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Ushbu ilmiy qarashlar o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini integratsiyalashgan boshqaruv asosida tashkil etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarish holatini o'rganish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ma'lumotlar bir necha usullar orqali yig'ildi: pedagoglar va maktab rahbarlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish, yarim tuzilgan intervyular tashkil etish hamda maktabdagi metodik yig'ilishlar, seminar va trening jarayonlarini bevosita kuzatish orqali empirik ma'lumotlar to'plandi. Shuningdek, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ichki maktab hujjatlari, metodik reja va hisobotlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar dastlab tizimlashtirildi, so'ngra ularning ishonchligini ta'minlash maqsadida qiyosiy va taqqoslash usullari qo'llandi. So'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirilib, intervyu va kuzatuv natijalari mazmuniy (kontent) tahlil orqali qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar aniqlandi. Shuningdek, integratsiyalashgan boshqaruvning samaradorligini baholashda mavjud holat bilan kutilayotgan natijalar o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Natijada olingan ma'lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzluksiz kasbiy rivojlanish atamasi o'qituvchilarning nafaqat ma'lum bir vaqt oralig'ida, balki butun faoliyati davomida malakani oshirish, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga doimiy intilishlarini anglatadi. Shuning uchun ham bu jarayon tashkilot – maktab darajasida to'g'ri yo'lga qo'yilishi, to'liq va tizimli boshqarilishi eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Bu yo'nalishda samarali integratsiyalashgan boshqaruv modelini tatbiq qilish uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalariga mos keladigan natijalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur modelda hamkorlik, axborot almashinuvi, tajriba va resurslarning integratsiyasi alohida o'rin tutadi. Pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda qadriyatlarini yangilash, zamonaviy ta'lim standartlarini chuqur o'zlashtirish hamda innovatsion tashabbuslarni keng joriy etish zarur. Integratsiyalashgan yondashuv asosida maktab darajasida uzluksiz kasbiy rivojlanishni boshqarishda yuqori samaraga erishish uchun, avvalo, muhitga e'tibor qaratish lozim. O'qituvchilar o'zini doimo rivojlanishga undaydigan professional muhitda bo'lishi, bilimlarni yaratuvchanlik bilan egallashi va amalda qo'llay olishi kerak. Maktabda hamkorlik muhitini tashkil qilish, pedagoglar o'rtasida o'zaro ishonch, ochiqlik va do'stona muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhit o'qituvchilarning o'zini erkin his qilishi, malaka oshirishda faol qatnashishi va o'z ustida ishlashga doimiy rag'bat topishiga zamin yaratadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishni boshqarishda integratsiyalashgan yondashuv mohiyatiga ko'ra maktab rahbari, metodik kengash, fan birlashmalari, tajribali ustozlar hamda o'qituvchilarning o'zlari faol ishtirok etadi. Kasbiy rivojlanishni boshqarishda har bir o'qituvchining ehtiyojlarini o'rganish, rivojlanish dasturlari va uchrashuvlarini rejalashtirish, boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashish, darslarni tahlil qilish, monitoring va baholash jarayonlarining mustahkam yo'lga qo'yilishi alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, maktabda samarali kasbiy rivojlanish boshqaruv uchun uzoq muddatli va qisqa muddatli rejalashtirish, aniq natijalarga yo'naltirilgan dasturlar tuzish, o'zaro muvofiqlashtirilgan va izchil faoliyat olib borish lozim. Maktabda uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini samarali boshqarish uchun bir qator mexanizmlar joriy etiladi: har bir o'qituvchining individual rivojlanish yo'nalishini aniqlash, ularga mos trening, seminar, mahorat darslari va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish hamda joriy etish. Bundan tashqari, rahbarlar va pedagogik jamoa o'rtasida muntazam ravishda kommunikatsiyalarni yaxshilash, o'zaro yordam, maslahat va axborot almashinishini kengaytirish ham ahamiyatlidir. Samarali boshqaruv tizimi yuqori natijalarni ta'minlash bilan bir qatorda ilg'or tajribani jamlash va uni barcha o'qituvchilar uchun ochiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan yondashuvda maktabdagi barcha mavjud resurslardan to'laqonli foydalanish zarur. Bu resurslar o'z ichiga pedagogik dasturlar, o'quv adabiyotlari, innovatsion texnologiyalar, metodik materiallar, zamonaviy IT yechimlar va malakali mutaxassislarini oladi. Integratsiyalashgan boshqaruv resurslarning bir-birini to'ldirishi va kuchaytirishini ta'minlaydi. Har bir o'qituvchining kasbiy ehtiyojlariga mos loyihalar va treninglar tashkil etiladi. Shu orqali maktab o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari zamon talablari darajasida bo'lishi, yangi pedagogik innovatsiyalarga ochiq bo'lishi va o'z ustida ishlashga doimiy tayyor bo'lishiga zamin yaratiladi.

O'qituvchilar zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy eta olishi hamda bu tajribalarni keng ko'lamda qo'llay olishi uchun, eng avvalo, ta'lim tizimi ularning fikrini tinglashi zarur. O'qituvchi o'z ishining haqiqiy subyekti bo'lmog'i, ya'ni qarorlar qabul qilinishi jarayonida faol ishtirok etmog'i lozim. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchini zamonaviy treninglar, malaka oshirish dasturlari, doimiy ko'mak va zarur pedagogik vositalar bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar va amaliyotchi ekspertlar hisoblangan Hargreaves va Fullan tomonidan ilgari surilgan hamkorlikka asoslangan va kasbdoshlararo o'rganish modellari o'qituvchilar o'rtasida o'zaro o'rganish, tajriba almashish va doimiy rivojlanish madaniyatini shakllantirish orqali barqaror natijalarga erishish imkonini beradi. Ularning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, o'qituvchilar nafaqat o'z maktabida, balki boshqa maktablar va jamoalar bilan ham hamkorlik qilib, ilg'or tajribalarini keng doirada tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishi ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi ^[1].

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarining samaradorligini oshirish uchun monitoring, baholash va tahlil mexanizmlari sifatli yo'lga qo'yiladi. Maktabda tashkil etiladigan har bir seminar, trening yoki malaka oshirish kursining mazmuni, ishtirokchilarning faol ishtiroki, bilim, ko'nikma va kompetensiyadagi o'zgarishlar doimiy ravishda o'rganib boriladi. Olingan natijalar asosida yangi dasturlar shakllantiriladi, kamchiliklar tahlil qilinadi va yechimlar ishlab chiqiladi. Barcha pedagoglarning faol qatnashuvi va oraliq baholashlar uzoq muddatda barqaror ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Organik integratsiyalashgan yondashuv asosida maktab darajasida amalga oshiriladigan kasbiy rivojlanish tadbirlari pedagoglarning doimiy o'sishini ta'minlaydi, ilmiy-amaliy yangiliklarni tezda o'zlashtirishga, ularni dars jarayonlariga joriy etishga va professional ko'nikmalarini kengaytirishga yordam beradi. Maktab hamjamiyatining hamjihatligi, pedagoglar o'rtasidagi o'zaro yordam va har tomonlama hamkorlik muhimi ham integratsiyalashgan boshqaruv asoslarini mustahkamlaydi. O'qituvchi faolligi va tashabbusparastligi, o'z ustida tizimli ishlashi pedagogik jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruvning integratsiyalashgan yondashuvi nafaqat mavjud resurslarni yanada samarali taqsimlash, balki tashqi hamkorliklar orqali yangi imkoniyatlar ochish, viloyat va davlat miqyosidagi ilg'or tajribalarni tezkor o'zlashtirish imkonini beradi. Hududiy metodik markazlar, malaka oshirish institutlari, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar bilan tizimli ishlash faoliyatga yangi ilmiy va innovatsion yutuqlarni olib kirib, kasbiy rivojlanishning doirasini kengaytiradi. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan har qanday tashabbus, loyiha yoki treninglar maktab hamjamiyatining qo'llovi va rag'batlari orqali yanada natijador o'tadi. Rahbariyat va tajribali pedagoglar yosh o'qituvchilar uchun tejamli va dasturli yordam ko'rsatish orqali mentorlik jarayonlarini samarali bosqichda tashkil qilishi mumkin. Ochiq darslar, kuzatuv va suhbatlar, o'zaro tajriba almashuv platformalari – bularning barchasi pedagoglarning o'z ko'nikma va mahoratini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardir. Ana shunday harakatlar kasbiy rivojlanish jarayonini izchil, tizimli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan boshqaruv modelida pedagoglarning bilim va ko'nikmalari muntazam baholanadi, ularning ehtiyojlari asosida yangi yo'nalishlar va dasturlar ishlab chiqiladi. O'qituvchilar darsdan so'ng o'z pedagogik faoliyati natijalarini muhokama qilishi, o'zaro maslahatlashishi mumkin. Tashkil etiladigan maxsus guruhlar va ishchi amaliyotlar o'qituvchilar uchun o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda yangi malaka va bilimlarni egallash imkonini beradi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini boshqarish natijasida maktabdagi ta'lim sifati yuksaladi, o'qituvchilarning dars berish metodikasi takomillashtiriladi, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar joriy etiladi va umumiy o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlari oshadi. Natijada maktabning ilmiy-pedagogik salohiyati kengayib, sinflarda interaktiv o'quv muhiti shakllanadi. O'qituvchi o'z faoliyati natijalarini baholash va o'z ustida ishlashdan doimiy mamnuniyat sezishiga, professional sifatlarining ortib borishiga ishonch hosil qiladi. Ochiq muhitda har bir o'qituvchiga individual yondashuv maktabda o'ziga xos kasbiy rivojlanish madaniyatini tarkib toptiradi. Rahbariyat tomonidan yo'lga qo'yilgan rag'batlantirish, malaka oshirish kurslari, seminar va trener-treninglar, ustoz-shogirdlik tizimi doirasidagi harakatlar pedagogik jamoani yanada jipslashtiradi. Kasbiy rivojlanish jarayonining izchil tashkil etilishi natijasida o'qituvchilar o'z sohasida innovatsion va bilimli mutaxassis sifatida yetishib chiqadi. Integratsiyalashgan boshqaruv orqali maktabda har bir o'qituvchining ehtiyojlari oldindan o'rganiladi, zarur ko'nikmalarni egallash uchun sharoitlar yaratiladi, qisqa va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilanadi. Professional rivojlanishga qaratilgan monitoring, samarali tahlil va ijobiy tajribalarni ommalashtirish orqali maktab jamoasi umumiy taraqqiyot sari dadil oldinga boradi. Maktab rahbariyati, tajribali ustozlar, o'qituvchilar birlashmalari hamkorligida amalga oshiriladigan xolis va ishlanma dasturlar orqali kasbiy rivojlanish tadbirlari sifatli va natijador o'tadi. Pedagoglarning malaka oshirishlari, yangi bilimlarni egallashlari va innovatsion yondashuvlarni qo'llashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Jamiyatda yuzaga kelayotgan zamonaviy talablar o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga turtki bo'ladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyati ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biri bo'lib, u bevosita o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sir qiladi. Turli tadqiqotlar uzluksiz kasbiy rivojlanish va o'qituvchilar samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlagan. Masalan, Yoon va boshqalar tomonidan o'tkazilgan metatahlil natijalariga ko'ra, yaxshi loyihalashtirilgan kasbiy rivojlanish dasturlari o'qituvchilarning dars berish amaliyotini ijobiy tomonga o'zgartiradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilar o'zlashtirishining yaxshilanishiga olib keladi ^[2].

Shuningdek, Guskey va Yoon uzoq muddatli va ish joyida olib boriladigan uzluksiz kasbiy rivojlanish (ya'ni, amaliy faoliyat bilan uzviy bog'langan ta'lim) aynan yangi bilim va ko'nikmalarni dars amaliyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi ^[3].



O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'zgaruvchan va tezkor rivojlanayotgan pedagogik muhitda o'qituvchilar doimiy yangiliklar, metodik hamda texnologik zamonaviylikdan xabardor bo'lishi zarur. Shu sababli maktab darajasida kasbiy rivojlanish tadbirlarini integratsiyalashgan tarzda boshqarish bugungi kunda ta'lim muassasalari oldidagi muhim vazifalardan biriga aylangan. Yuzaga kelgan talablarga munosib javob berish uchun o'qituvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borishga, mavjud tajriba hamda bilimlarni zamonaviy yangiliklar bilan boyitishga, pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishga hamda doimiy tarzda o'z ustida ishlashga majburdirlar. Integratsiyalashgan yondashuv bunday jarayonlarni yagona tizimda boshqarish, maktabda mavjud resurslar va imkoniyatlarni to'liq safarbar qilish, barcha pedagoglarni bir maqsad yo'lida birlashtira olish imkonini yaratadi [4].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, maktablarda o'tkaziladigan kasbiy rivojlanish tadbirlarini samarali boshqarishning asosi – integratsiyalashgan, ya'ni ustozlar, metodistlar, boshqaruvchilar, yosh pedagoglar, tashqi mutaxassislar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi mustahkam, ochiq hamkorlik va axborot almashinuvidir. Ilg'or tajribaga ega muassasalarda ushbu hamkorliklar natijasida kasbiy rivojlanishning qamrovi kengayadi, har bir o'qituvchi o'z ehtiyoj va qiziqishlariga mos dasturlarda qatnashadi, o'z faoliyatini yanada samarali tashkil eta oladi. Bunday yondashuv o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvini shakllantiradi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga, o'zining ilgari olgan bilimlariga tanqidiy munosabatda bo'lishga va yangilashga ochiqlik ruhining qaror topishiga xizmat qiladi. Natijada o'qituvchida o'z doirasini kengaytirish, fanlararo integratsiyani chuqur o'zlashtirish va fanlararo bog'liqliklarni anglash ko'nikmasi ortadi, bu esa ta'lim sifatining yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratadi [5].

Tajriba shuni ko'rsatadiki, maktab miqyosida o'qituvchilar uchun tashkil etilgan kasbiy rivojlanish tadbirlari ko'proq tizimli, kompleks va o'zaro hamkorlikda uyushtirilganda, o'qituvchi o'z faoliyatini muntazam rivojlantirishga ishtiyok bilan yondasha boshlaydi. Bunday tadbirlar seminar-treninglar, o'zaro dars kuzatuvlari, ijodiy guruhlar faoliyati, ochiq darslar, amaliyotda ilg'or tajribani o'rganish, kasbiy tashkilotlarda faol ishtirok etish, fanlararo tadbirlar, loyihalar, hamkorlikda muammoli vaziyatlarni yechish bo'yicha treninglar ko'rinishida tashkil etiladi. Integratsiyalashgan yondashuvning bosh ijobiy tomoni shundan iboratki, bunda boshqaruv tizimi, pedagogik jamoa va tashqi resurslar bir butunlikda, ya'ni yagona maqsadga xizmat qila oladi. O'qituvchilar o'z malakasini oshirishda faqat mahalliy tajribaga tayanmasdan, balki ilmiy-amaliy konferensiyalar, internet asosida tashkil etilgan onlayn o'quvlar, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashinuvi, ochiq seminarlar kabi imkoniyatlardan ham foydalana boshlaydi [6].

Kasbiy rivojlanishning integratsiyalashgan boshqaruvi yana shunday natijalarni namoyon qiladi: maktab jamoasida boshqaruv madaniyati, axborotga ochiqlik, samimiy hamkorlik, innovatsiyalarga ochiqlik muhitlari shakllanadi. O'qituvchilar o'z ustida ishlashdan tashqari, bir-biriga yordam berish, o'z tajribasi bilan bo'lishish, yangi g'oya va metodlarni muhokama qilishda faol bo'lib boradilar. Bu yondashuv, shuningdek, maktab rahbariyatining kasbiy rivojlanishni samarali boshqarish borasidagi mas'uliyatini oshiradi. Har bir tadbir, loyiha yoki mashg'ulot reja asosida, aniq maqsad va kutiladigan natijalar bilan amalga oshiriladi. Ustozlar orasida kasbiy rivojlanish monitoringi yo'lga qo'yiladi, ushbu monitoring asosida o'qituvchilarning ehtiyojlari va manfaatlari inobatga olinadi, yangi yo'nalishlar yoki dasturlar ishlab chiqiladi. Biror muassasada kasbiy rivojlanish vaqtida yuzaga keladigan muammolardan biri – faoliyatning tartibsizligi, resurslarning samarasiz taqsimlanishi, hamjihatlikning yo'qligi va qog'ozbozlik, faqatgina rejani bajarishga intilishdir. Integratsiyalashgan yondashuv yordamida ushbu holatlarning oldi olinadi. Kasbiy rivojlanish jarayoniga barcha manfaatdor tomonlarning jalb etilishi ta'lim berish sifatiga ijobiy ta'sir qiladi, o'qituvchi o'z kasbiy identifikatsiyasini chuqurroq anglaydi, o'z ishidan mamnunlik va motivatsiya yuqorilaydi [7].

Keng tahlildan ko'rinadiki, bir necha-yildan buyon olib borilayotgan kasbiy rivojlanish tadbirlarida quyidagi ijobiy natijalar kuzatilmoqda:

1. O'qituvchilarda o'zaro ishonch va hamkorlik muhitining shakllanishi – bu orqali pedagoglar o'z faoliyati haqidagi mulohazalar va takliflarini ochiq bayon etishlari, tajriba almashishlari mumkin bo'ladi.
2. Kasbiy rivojlanishda yangiliklarni tezda o'zlashtirish – har bir ustoz zamonaviy, innovatsion uslublarni sinab ko'rishi, ulardan faol foydalanishi mumkin bo'ladi.
3. Maktabda hamjihatlik, yagona jamoaviy maqsad sari intilish, kasbiy manfaatdorlik hissining oshishi.
4. O'qituvchilar faoliyatida metakognitiv ko'nikmalar, ya'ni o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga tanqidiy yondasha olish ko'nikmasining ustuvor hisoblanishi.
5. Fanlararo integratsiya, pedagoglar o'rtasida yangi kollaborativ loyihalarning paydo bo'lishi hamda maktab miqyosida o'qituvchilar birligi va kuchli sinergetik muhit yaratilishi.

Bunday natijalarga erishishda maktab rahbariyati ham o'z zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni oladi.

Kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda rahbariyat ta'lim muassasasi oldida turgan real muammolar, mavjud salohiyat va ehtiyojlarni chuqur tahlil qilib, aniq maqsadli harakatlar rejasini ishlab chiqadi, ilg'or tizimlarni doimiy joriy etib boradi.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jarayonida salbiy omillardan biri, ba'zan individual ehtiyojlarning yetarlicha o'rganilmasligi, har bir o'qituvchining yutuqlari va salohiyatini chuqur baholamaslik bo'lib kelgan. Integratsiyalashgan yondashuv tadbirlari bu muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi, individual va guruhiy rivojlanish strategiyalarini uyg'unlashtirish, har bir o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'nalishi va qiziqishlariga mos imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi. Tadbirlar samaradorligini oshirish uchun maktablar doirasida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi ta'minlanadi. O'qituvchilar, masalan, ma'lum bir yo'nalishda seminar-treninglar o'tkazib, so'ngra amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini bevosita hayotga tatbiq qilib ko'radilar, yangiliklarni kundalik faoliyatlariga integratsiyalashadi. Keyingi bosqichda esa bu bilim va ko'nikmalarni tajriba almashuvi va hamkorlik formati orqali yanada takomillashtirishga harakat qiladilar. Integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi maktabdagi mavjud resurslar – masalan, o'quv-uslubiy baza, zamonaviy texnika va texnologiyalar, axborot resurslari, mahalliy va xorijiy hamkorlik aloqalari, ilg'or soha mutaxassislarining yordami, zamonaviy internet resurslari va platformalardan samarali foydalanishga yordam beradi. Analogik tarzda, o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi bilan bog'liq muammolar (motivatsiyaning pasayishi, konservativ qarashlar, innovatsion yangiliklarga qarshilik, o'z ustida ishlashga shoshilinch intilmaslik) integratsiyalashgan kasbiy rivojlanish muhitida ijobiy hal etiladi. Doimiy yangilanish va ochiq axborot almashuvi o'qituvchilarda zamonaviy va ijodiy muhitni, yangi g'oyalar va ko'nikmalarni rivojlantirishga bo'lgan tashabbusni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi^[8].

Tashkil etilayotgan kasbiy rivojlanish tadbirlarida eng samarali usullardan biri bu – refleksiya va natijani muntazam tahlil etish yondashuvini tatbiq etishdir. Ya'ni, har bir o'tkazilgan mashg'ulot yoki loyiha yaxshilab muhokama qilinadi, kuchli va kamchilik tomonlari aniqlanadi, kelgusida qay tariqa yaxshilash mumkinligi o'rganiladi. Bu jarayonlar o'qituvchilar jamoasini inobatli tahlil qilishga, o'zgarishlar bo'yicha ochiq muloqot yuritishga o'rgatadi, ularning professional ongini rivojlantiradi. Integratsiyalashgan boshqaruvda erishiladigan natijalardan yana biri – o'qituvchilarda o'z faoliyatini baholash va to'g'ri yo'naltirish ko'nikmasining ortishidir. Bu orqali ular sohaning yetakchi ekspertlari bilan tanishish, malaka oshirish kurslarida faol qatnashish, ilmiy-amaliy tadbirlarda ishtirok etish, yangi o'quv-uslubiy materiallarni yaratish va joriy etishga hissa qo'shadilar^[9].

Maktab miqyosida kasbiy rivojlanishni integratsiyalashgan tarzda boshqarishning ijobiy natijalaridan biri – zamonaviy, kuchli va professional pedagoglar jamoasining shakllanishi, kasbiy o'sish uchun doimiy va qulay muhitning yaratilishi, ochiqlik va ishonch ruhining mustahkamlanishi, o'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik bilan birga yangi avlod ta'lim oluvchilari uchun innovatsion va raqobatbardosh ta'lim tajribasining yaratilishidir. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, maktab darajasida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish:

- ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi;
- o'qituvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilashini ta'minlaydi;
- kasbiy faollik va ijodkorlikni rivojlantiradi;
- kuchli va samarali pedagogik jamoadan tashkil topgan maktab muhitini shakllantiradi;
- o'qituvchilar o'rtasida hamjihatlik va ochiq muloqotni mustahkamlaydi;
- maktabda ilg'or tajribalarni samarali joriy qilish va rivojlantirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvi orqali maktab ta'limi bozor talablari va zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga munosib sifat va mazmundorlikda xizmat qiluvchi soha sifatida yanada taraqqiy topadi, zamonaviy pedagogika va innovatsion texnologiyalarning amaliyotda to'liq tatbiq etilishini ta'minlaydi hamda har bir o'qituvchining professional o'sishi uchun kafolatli poydevor yaratadi^[10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda ta'lim sifatini oshirish, kuchli va raqobatbardosh pedagoglar safini kengaytirish uchun o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida integratsiyalashgan yondashuv asosida tizimli va samarali boshqarish zarur. Integratsiyalashgan boshqaruv maktabdagi har bir o'qituvchining ehtiyojlarini aniqlash, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalar va ilg'or tajribalarni samarali joriy etish hamda barqaror monitoring asosida yangi bosqichlarni bosib o'tishga xizmat qiladi. Natijada maktab ta'limining samaradorligi va zamonaviylik darajasi oshadi, o'quvchilar uchun raqobatbardosh bilim va ko'nikmalar beriladigan muhit shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Guskey, T. R., & Yoon, K. S. (2009). What works in professional development. *Phi Delta Kappan*, 90(7), 495–500.
2. Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School*. New York, NY: Teachers College Press.
3. Ismailov, T. (2024). Pedagogical views of enlighteners of the XIX–XX centuries. *Models and Methods in Modern Science*, 3(5), 169–172.
4. Kharatova, S. K. (2022). Use of innovative technologies in the educational process. *Science and Education*, 3(3), 713–718.
5. Хуторской, А. В. (2003). *Креативное образование: теория и практика*. Москва: Педагогика.
6. Norqulov, U. R. (2022). *Oliy ta'limda kreativlik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. Saidzimova, G. N. (2021). *Pedagogik kreativlik va uning ta'lim jarayonidagi o'rni*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. Яковлева, Е. В., & Аванесов, В. С. (2019). *Инновационные методы преподавания в педагогике*. Москва: Просвещение.
9. Yoon, K. S., Duncan, T., Lee, S. W., Scarloss, B., & Shapley, K. L. (2007). Reviewing the evidence on how teacher professional development affects student achievement. *Issues & Answers Report, REL 2007–No. 033*. Washington, DC: U.S. Department of Education, Institute of Education Sciences, National Center for Education Evaluation and Regional Assistance, Regional Educational Laboratory Southwest.
10. Jo'rayev, B. va boshqalar. *O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish: zamonaviy yondashuv va tajriba*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.
11. Nazarova, Z. *Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi*. – Samarqand, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.